

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
НИЗОМИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ
ДЕФЕКТОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ

Бакалавр даражасини олиш учун

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Мавзу: 10 ichida nomerlashni o‘rgatishda pedagogik
texnologiyalardan foydalanish»

Бажарди: 4-курс талабаси Турдиева
Юлдуз Дилшодовна

Илмий раҳбар: п.ф.н., доц. Хамидова М

MUNDARIJA

KIRISH

I bob. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari

- 1.1. Pedagogik texnologiya muammosini adabiyotlarda yoritilish holati
- 1.2. O'qitish jarayoniga texnologik yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari.

I bob bo'yicha xulosa

II bob. Aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish xususiyatlari

- 2.1. Aqli zaif bolalarda 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish holatini o'rganish metodikasi
- 2.2. Aqli zaif bolalarda 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish holatini o'rganishdan olingan natijalar

II bob bo'yicha xulosa

III bob. Aqli zaif bolalarga 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari

- 3.1. Matematika darslarida qo'llaniladigan o'yin texnologiyalari
- 3.2. O'yin texnologiyalari yordamida aqli zaif bolalar og'zaki hisoblash malakasini shakllantirish
- 3.3. Ko'rgazma qurollardan foydalanish orqali aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlashga o'rgatish
- 3.4. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlashga o'rgatish

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilova

Annotatsiya

Bitiruv malakaviy ishi 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ishlarini tadqiq etishga qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi yoritilgan. 1-bobida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha adabiyotlardan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning 2-bobi 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish xususiyatlari eksperimental o'rganishga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishining 3 bobida 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Annotation

The qualification work is dedicated to investigate bases of using pedagogic technologies in teaching numbering in 10. In the preface of qualification work there is given topicality of it. There is given information that is taken from the literatures related on the using of pedagogic technologies in the 1st chapter of the work.

The 2nd chapter of the work is devoted to gain functions of numbering in 10.

In the 3rd chapter of the qualification work there is learnt the ways of using pedagogic technologies in teaching numbering in 10.

Kirish

Mamlakatimiz o'zining mustaqil taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamlakatga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida bildirilgan muhim amaliy taklif va xulosalar asosida jamiyatni isloh etish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida o'tgan qariyb 20 yil davomida amalga oshirilgan keng ko'lamli ulkan ishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati atroflicha ochib berildi.¹

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin olishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar ayniksa, ta'lim tizimining tubdan islox, qilinishi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi hamda Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi pedagoglar zimmasiga yuksak ma'suliyatli va sharaflil vazifalar yuklaydi.

Yukorida zikr etilgan davlat xujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi ham yosh avlodni aqlan yetuk, ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, inson jamiyatning tayanchidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar

¹ И.А.Каримов "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" мавзусидаги маърузаси

etamiz, »

Davlatimiz rahbari I.Karimov tashabbusi bilan 2014 yilning mamlakatimizda “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilinishi jamoatchiligimiz tomonidan keng qo‘llab – quvvatlandi.

Joriy yilning 19 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog‘lom va ma‘nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash usutuvor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo‘ladi. “Ona va bola”, “Yoshlar”, “Barkamol avlod”, “Oila” va boshqa nomlar bilan atalgan yillarda amalga oshirilgan ishlar xalqimizning ezgu orzusi bo‘lgan sog‘lom bola tarbiyalashdek, olijanob maqsadga hamohangdir. Hech shubhasiz, har birimiz farzandlarimizni sog‘lom va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning baxt – saodati, yorug‘ kelajagini ko‘rishni niyat qilamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta‘limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturining amalga oshirilishi samaralari mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan ulkan e‘tiborning yaqqol tasdig‘idir. Ma‘lumki, O‘zbekistonda 12 yillik majburiy ta‘lim joriy etilgan, uning sifati xalqaro talablarga javob beradi.

“Sog‘lom bola yili” Davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora – tadbirlar, avvalo, shu muhim masalalarni hal qilishga qaratilgan².

Joriy yilda davlat dasturini amalga oshirish jarayonida bu ishlarning barchasi yanada yuqori darajaga ko‘tariladi. Dasturda jismoniy ham ma‘naviy jihatdan sog‘lom, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak intellektual salohiyatli, chuqur bilimli va zamonaviy dunyoqarashga ega, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir barkamol avlodni shakllantirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini ana shu maqsadlarga safarbar etishga doir keng miqyosli chora – tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

² “Соғлом бола йили” Давлат дастурини ишлаб чиқишни амалга ошириш бўйича Республика комиссиясининг 2013 йил 13 декабрдаги 360-сонли йиғилиш баёни

“Sogʻlom bola yili” Davlat dasturida maktabgacha taʼlim muassasalarining moddiy – texnik bazasini bosqichma – bosqich mustahkamlash, shu jumladan, ularni tubdan taʼmirlash va jihozlash, yangilarini qurishga yoʻnaltirilgan aniq vazifalar belgilangan. Bolalarni maktabga tayyorlash boʻyicha mutlaqo yangi dasturlarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi belgilangan boʻlib, ularda bolalarning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi koʻzda tutilgan³.

“Sogʻlom bola yili” Davlat dasturida Boshlangʻich sinflarda oʻqitish sifatini yanada koʻtarish choralari belgilangan. Jumladan, 1 – 4 sinf oʻquvchilari uchun oʻquv dasturlari va darsliklarning qayta koʻrib chiqilishi, shuningdek, oʻqituvchilar uchun tegishli uslubiy qoʻllanmalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda ota – ona mehridan mahrum va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida gʻamxoʻrlik koʻrsatib kelinmoqda. 2015 – 2017 yillarda Mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab – internatlar va maktabgacha taʼlim muassasalarining moddiy texnik bazasini bosqichma – bosqich mustahkamlash, rivojlangan davlatlarning ilgʻor tajribasini hisobga olgan holda, oʻquv – tarbiya jarayonini tubdan takomillashtirish choralari koʻriladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini qoʻllab – quvvatlash boʻyicha chora – tadbirlarni amalga oshirish davom ettiriladi. Jumladan, 586, 9 ming nafar birinchi sinf oʻquvchilariga oʻquv jihozlari toʻplamlari va 6,5 million nusxadagi darsliklar, umumtaʼlim maktablarining 500 mingdan ortiq 2 – sinf oʻquvchilariga chet tillar boʻyicha multimediali ilovali darsliklar bepul beriladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari va kam taʼminlangan oilalar farzandlarini xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirish maqsadida Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariga bepul sayohatlar, shuningdek, muzeylar, hayvonot va botanika bogʻlariga ekskursiyalar tashkil etiladi.

Prezidentimiz I.Karimov taʼkidlaganidek, biz tayanchimiz va suyanchimiz, gʻururimiz va iftixorimiz boʻlmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan,

³ Халқ сўзи газетаси. 2014 йил 22 февраль, № 38 (5968).

hurmat – e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat – ehtirom ifodasi, deb bilamiz.⁴

“Sog'lom bola yili” Davlat dasturi buning yana bir yorqin tasdig'idir. Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarga davlat byudjetidan anchagina miqdorda mablag' yo'naltiriladi. Mazkur dasturning bajarilishi mamlakatimizning uchun asosiy maqsadi inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'ladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maxsus ta'lim konsepsiyasi»dagi talablardan kelib chiqqan holda aqli zaif bolalarni o'qitish, ijtimoiy hayotga moslashtirish hamda ularning matematik bilimlarini rivojlantirish yuzasidan ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Aqli zaif o'quvchilarning kelgusi kasblari, kundalik turmushlari uchun zarur bo'lgan matematik bilim va malakalarni o'rgatish hamda bu bilim va malakalarini butun hayotlari davomida qo'llay olishlarini shakllantirish matematika o'qitishning bosh umum-ta'limiy vazifasidir.

Yordamchi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish vazifalarini aniqlashda ana shu asosiy vazifalarga asoslanish lozim. Boshqa har qanday o'quv fani kabi matematika kursi ham ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni hal qilishi kerak.

Matematika o'qitish aqli zaif bolalarning ma'lum bilim va malakalarini o'zlashtirib olishlarinigina emas, balki ularda idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilish qobiliyatlarini umumiy rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan ish ularga aqliy faoliyatning muhim usullarini o'rgatish, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi.

Matematika fanidan berilgan materiallar va ular bilan ishlash bolalarda mantiqiy fikrlashni, og'zaki va yozma nutqda o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qila bilishni tarbiyalashga katta yordam beradi.

⁴ Халқ сўзи газетаси. 2014 йил 22 февраль, № 38 (5968).

Aqli zaif o'quvchilarning tafakkurlarining konkretligi, kuzatilayotgan hodisalarni umumlashtirish malakasining bo'shligi shunga olib keladiki, bu o'quvchilarda son va sanoq tushunchasi juda sekin vujudga keladi. Bu hattoki 1-sinfga o'tganda ham yetarli darajada rivojlanmaydi. Aqli zaif bolalarni matematikani muvaffaqiyatli o'zlashtirishi ularning o'ziga xos xususiyatlariga va matematik tushunchalarni o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklariga bog'liq. Shu sababli aqli zaif bolalarni matematik bilimlarini rivojlantirishda turli usullardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Jumladan o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, alohida ta'limga muxtoj bolalarga e'tiborni kuchaytirish o'quv usul va uslublarini takomillashtirish kabi vazifalar qo'yildi.

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot e'tiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy pedagogik texnologiyaning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va sifatiga katta e'tibor qaratilgan bugungi kunda xar bir pedagog ish faoliyatini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etmog'i kerak. Bilim berish bilan birga ularda bilimga bo'lgan qiziqishini, mehnat qilishga ehtiyojini tarbiyalab borish ko'zda tutiladi. O'qituvchining maqsadi bolalarning yosh xususiyatlari va o'quv-biluv jarayoniga tayyorgarlik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rganilgan mustaqil ishlarning ketma-ketligini bilishi, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni tanlash qo'shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotda muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini o'rgatishdir. Hozirgi zamon o'qituvchisi barcha jarayonlari bolalarni erkin fikrlashga, mustaqil faoliyat yuritish va ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Muammo shundaki, pedagogik texnologiyalarni yordamchi maktabda ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ma'lum qiyinchiliklar vujudga keladi. Aqli zaif

o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mos tushadigan texnologiyalarni tanlab olish yoki muayyan o'zgartirishlar kiritib, ta'lim jarayoniga moslashtirish o'qituvchidan izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi.

Aqli zaif o'quvchilarning matematik bilimlarini o'zlashtirishda, ayniqsa 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosi respublikamizda ilmiy-nazariy, amaliy-metodik jihatdan ishlanmaganligini korreksion-pedagogik ishlar tizimining yo'qligini e'tiborga olib, biz tadqiqot mavzusini «10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish» tarzida belgiladik.

Tadqiqot maqsadi – Aqli zaif o'quvchilarga 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish

Biz oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** belgilab oldik:

- muammoning nazariy va amaliyotdagi holatini o'rganish va tahlil etish;
- yordamchi maktab o'quvchilarini o'n ichida nomerlashga o'rgatish xususiyatlarini eksperimental o'rganish va tahlil etish;
- aqli zaif o'quvchilarga 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti Yordamchi maktab o'quvchilarini o'n ichida nomerlashga o'rgatish jarayoni

Tadqiqot predmeti – aqli zaif o'quvchilarga 10 ichida nomerlashga o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash yo'llari

Tadqiqotning metodologik asosi – O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi, prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari, Sharq mutafakkirlarining ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash, komil insonni tarbiyalash haqidagi falsafiy axloqiy qarashlari,

umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya fani bilan shugʻullanuvchi hozirgi zamon olimlarining ilmiy, metodik tadqiqotlari.

Tadqiqot metodlari:

- mavzuga oid nazariy, ilmiy-pedagogik, psixologik adabiyotlarni oʻrganish va tahlil etish;

- tibbiy-pedagogik hujjatlarni oʻrganish, darsni kuzatish, tajriba-sinov ishlarini oʻtkazish;

- yordamchi maktab oʻquvchilarini oʻn ichida nomerlashga oʻrgatish xususiyatlarini oʻziga xos xususiyatlarini miqdor hamda sifat jihatidan tahlil etish va umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I bob. Pedagogik texnologiyaning ilmiy nazariy asoslari

1.1. Pedagogik texnologiya muammosini adabiyotlarda yoritilish holati

O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”¹ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida «O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlashning muhimligi» alohida qayd qilingan.⁵ Shuning uchun ham mamlakatimiz o‘quv muassasalarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va bu tushunchani o‘ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo‘lmoqda.

O‘qitishga texnologik yondashish, yagoni o‘quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo‘lishini ta‘minlashga oid dastlabki izlanishlar o‘tgan asrning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, «o‘qitish texnologiyasi» iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan. U - «o‘qitish texnologiyasi-psixologiya fani yutuqlarining pedagogik amaliyotda qo‘llanishidan iborat», deb ta‘riflagan.

Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil ta‘rif berilganligi ma‘lum⁶.

Masalan: «Ta‘lim texnologiyasi ilmiy va boshqa bilimlarning amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo‘llashdan iborat». (Golbrayt).

«Pedagogik texnologiya ta‘limini tizimlashtirish yoki sinfda o‘qitishni tizimlashtirish g‘oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat». (T.Sakomoto).

«Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularni faoliyat ko‘rsatish tartibi». (Rlarin M.V.).

Yuqoridagi ta‘riflarda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o‘quv jarayoniga tizimiy yondashishdan iborat ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni (Barkamol avlod –“O‘zbekiston taraqqiyot poydevori” –T.: Sharq nashriyoti-matbaa konserni, 1997)

⁶ Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma. –T.: 2004.

Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir».

So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog-olimlari va tajribali amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilayotganligi bizga ma'lum. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalarda, anjuman ma'ruzalarida, hisobotlar va davriy nashrlarda ham o'z aksini topmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizning taniqli olimlari R.X.Jo'rayev, U. N. Nishonaliyev, N. S. Sayidaxmedov, B. L. Farberman, Rossiya pedagog-olimlari; V. P. Bepalko, V. S. Bezrukova, M. V. Klarin va boshqalar hamda qozog'istonlik olimlar M. J. Aristanov va J. S. Haydarov o'z ilmiy tadqiqotlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga munosib hissa qo'shganlar.

Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-maorifiy aloqalar o'rnatish boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini qamrab oldi.

Oxirgi yillarda, Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan MDH davlatlari o'rtasida ham pedagogik texnologiyalar loyihalarini tuzishda ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bospalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»⁷.

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: «Pedagogik texnologiya - avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», -degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «Pedagogik texnologiya -o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», -deydi.

V.M. Klarin fikricha, pedagogik texnologiya-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir.

V.P. Bospalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N. Saidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya -bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir⁸.

⁷ Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: 1995.

⁸ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi. Nasaf. 2000.

I.Y. Larnerning fikriga ko'ra, Pedagogik texnologiya -o'quvchilar xarakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: Pedagogik texnologiya -ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir⁹.

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon olimi T. Sakomoto, bergan ta'rifni keltiramiz. «Pedagogik texnologiya - deydi Sakomoto, -bu majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singidirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuiga keltirishdir». Polyak olimi Dj. Bruner «o'qitish texnologiyasi-bu o'qitishni maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligini e'tirof etdi. Tizimli yondashish ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga aniqlik kiritila borildi va rus olimasi N.F. Talizina uning mohiyatini «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat» deb tushuntirdi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'tgan yillarda pedagogik texnologiya o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalash deya ifodalandi. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi, yoki bunday yondashishda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V. Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida «Pedagogik texnologiya -bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash -

⁹ Farberman L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: "Fan", 2000.

loyihalashdir» deb ta'rifladi.

1.2. O'qitish jarayoniga texnologik yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari.

Ishlab chiqarishda natijasi kafolatlangan, lekin ijrochilar shaxsiga bog'liq bo'lmagan juda ko'p texnologik jarayonlar yaratilgan. Sanoatdagi buyumning ishchi chizmasi va yig'iladigan birikmalar chizmasi texnologik jarayonning asosini tashkil qiladi. Ularning talablarini aniq bajarish natijasida buyumlarni o'zaro almashuvchanligini, texnologik jarayon operasialari esa takrorlanuvchanligi, ya'ni takrorlanuvchan texnologik siklni tashkil qilishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda, Janubiy Koreya va Turkiyadagidek, ulardagi bilan bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yengil avtomobillar va kichik avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. O'quv (o'quv-tarbiyaviy) masalalarni turli tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarning o'zlashtirilishini talabalarning individual xususiyatlariga bog'liqligi va boshqa omillar bunga to'sqinlik qiladi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yaratilgan barcha uslub, shakl va modellar faqat o'z egasi qo'lidagina yuqori samara beradi. Shunday bo'lsa ham, o'quv jarayoniga yagona, samarali yondashishni yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida AQShning buyuk pedagoglari B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Andersen va boshqalarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya yaratildi.

Uning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun belgilangan ketma-ketlik bo'yicha, har bir o'quv bo'lagini (modulini) o'zlashtirib, mustaqil faoliyat ko'rsatishidan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyasining predmeti o'quv jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini - maqsadni aniqlash va o'quv

jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligi va ularni to'la o'quv jarayoniga tadbiiq etish g'oyasi, oqibat natijada, bu jarayonni «jonli o'qituvchiga» bog'lik bo'lmay qolishiga olib keladi. Xaqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinish (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi.

V.P.Bespalko ta'kidlaganidek: - Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda, pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, talaba shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashdir.¹⁰

O'qitishning mavjud uslublari ko'p hollarda o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat bo'lsa, pedagogik texnologiya bundan farqli o'laroq: birinchidan yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa bo'lajak o'quv jarayonini ham loyihalaydi. U.N.Nishonaliyev va B.L.Farberman ta'kidlaganlaridek, «pedagogik texnologiya o'quv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijani kafolatlanishi, o'quv jarayonning takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi»¹¹.

Bunday umumiy tasvirlashda texnologik yondashishning o'ziga xos belgilari sezilmayotganga o'xshaydi. Haqiqatda ham umumiy maqsad va mazmun har doim aniqlanadi, har qanday ta'lim jarayonining maqsadi belgilanadi o'qitish natijasi har doim ham baholanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni

¹⁰ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии; -М.: Педагогика, 1989

¹¹ Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. -T.: 2004.

shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizim so'zi- tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan yaxlit narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi. Tizim tushunchasi va so'zi, boshqa ma'nolarga ham ega. Masalan, tizim-ip, sim kabilarga terilgan narsa; tizim-shoda (bir tizim marvarid, bir shoda marjon kabilar). Shuningdek, kibernetik tizim, axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, xarakterlar tizimi, pedagogik tizim kabi tushunchalar shaklida ham qo'llaniladi. Tizim tushunchasi odatda ayrim belgilariga ko'ra turlarga ajratiladi: moddiy narsalar tizimi; mavhum tushunchalar, faraziyalar, nazariyalar, ilmiy bilimlar tizimi kabilar.

Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng vo'llaniladi, ta'lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

“Tizimli yondashuv” tushunchasi ko'pincha “tizimli metod”, “tizimli tahlil usuli” tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obektni yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv, ayniqsa, tuzilish-vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi, u, birinchidan, obektning turli qismlarini; ikkinchidan, qismlarning o'zaro bog'liqligini; uchinchidan, tizimning chegaralarini va to'rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuvda bir qancha qoida-prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Bunday prinsiplar qatoriga, jumladan, quyidagilar kiradi: mavxumlikdan yaqqollikka qarab borish; analiz bilan sintezning, mantiqiylik bilan tarixiylikning birligi; obektda bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlarning turlichaliga; obektning tuzilishi-vazifalari va kelib chiqishi haqidagi tasavvurlarning birligi va boshqalar.

Pedagogik tizim. Inson bolasini barkamol shaxs, biror kasb egasi sifatida shakllantiruvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, uning tarkibi pedagogik jarayonning obyektlari va subyektlari, shakl-usullari, ular o'rtasidagi

munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ularni boshqarishdan iborat. Pedagogika keng va tor (jins va tur) tushunchalarni o'z ichiga oladi: pedagogika-fan; pedagogika-o'quv predmeti; pedagoglik-inson faoliyatining bir sohasi sifatida keng tushunchalardir. Ularning har biri ma'lum qismlardan tuzilgan tizim hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida ayrim belgilariga ko'ra bir necha qismlardan tuzilgan tizimdir. Pedagogik fanlar tizimiga pedagogika nazariyasi va tarixi; o'qitish nazariyasi va metodikasi; maxsus pedagogika; jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi; madaniy-maorifiy ishlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika kabilar kiradi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shakl-usullari tizimi; ta'lim-tarbiyaning yo'nalishlari, turlari tizimi; uzluksiz ta'lim tizimi; ta'lim muassasalari tizimi; pedagogik ixtisosliklar tizimi; o'quv vazifalari, o'quv axborotlari tizimi kabilar ham pedagogik tizim tarkibiga kiradi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya yunoncha so'z bo'lib, texne-mahorat, sanoat, logos-tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillantiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lgan amallar-materiallarni qazib olish, tashish, tahlash, saqlash va boshqalar ham texnologiya deyiladi. Texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini tasvirlash, ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar ham kiradi. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik xujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarganidan qat'iy nazar, mahsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- o'qish-o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

- ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan xarakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Bu yondoshuv asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproductiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish xarakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir.

Reproduktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim-takror ishlab chiqariladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassa tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqiladi, ayrim bo'lak (qism, modul)larga ajratiladi, o'quv materialini o'rgatishning alternativ yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish test yordamida nazorat etilib, xato, kamchiliklar tuzatilib, to'g'rilab boriladi. O'quv ishi etalonda ko'rsatilgan natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu, bolalarni qiziqtirish, musobaqa va o'zaro yordamlashishini inkor etmaydi. Ta'lim reproduktiv xarakterda olib borilgani uchun ham bu usul bilim, ko'nikma va malakalarning zarur minimumini egallashda ko'proq samara beradi. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

I bob bo'yicha xulosa

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalash deya ifodalandi. Olib borgan izlanishlarimiz tahlili, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishga yordam berishini ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, pedagogik texnologiyalarning usul va uslublari meyorda rivojlanayotgan bolalarga qaratilganligini aniqladik. Yordamchi maktab o'quvchilari uchun moslashtirilgan pedagogik texnologiyalarning yo'qligini guvohi bo'ldik.

II bob. Aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish xususiyatlari

2.1. Aqli zaif bolalarda 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish holatini o'rganish metodikasi

Respublikamiz sharoitida 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirishining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy amaliy jihatdan o'rganilmaganligi sababli biz ushbu muammoni pedagogik texnologiyalar asosida o'rganishga xarakat qildik. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun biz kuzatuv eksperimentini o'tkazdik. Kuzatuv eksperimentida 10 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etishdi.

Quyidagi vazifalar taklif qilindi:

1. Sonni xosil qilish.

Amaliy mashqlar, ko'rgazmalilik, didaktik materiallar – asosida ushbu vazifani bajarish so'raldi.

3 sonini xosil qilish vazifasi berildi. 2 ga 1 ni qo'shib, yoki to'rt dan birni ayirib 3 soni xosil qilinadi.

Baholash mezonlari

- Vazifani mustaqil bajardi.
- Vazifani bajarishda hatolarga yo'l qo'ydi
- Vazifani bajarishda yordamga muhtoj bo'ldi.
- Vazifani bajarishdan bosh tortdi.

2. Sonni raqam bilan belgilash va raqamni yozish.

Bolalarga ushbu vazifani taklif qilishda quyidagicha tayyorlov ishini olib boriladi:

1. Raqamni qulyozma nusxasi ko'rsatiladi.

2. O'qituvchi doskada raqamning yozilish namunasini tushuntirib beradi.

3. Hamma o'quvchilar 1- bosqichda o'qituvchi yozib ko'rsatgan raqamlar ustidan barmoq yoki ko'rsatkich tayoqcha bilan yurgizishadi.

4. Havoda raqamni yozish.

5. Bolalarning o‘tirishlarini, daftarning va ruchkaning to‘g‘ri holatini tekshirish.

Shundan so‘ng bolalardan raqamlarni yozib berish so‘raladi.

Baholash mezonlari

- Vazifani mustaqil bajardi.
- Vazifani bajarishda xatolarga yo‘l qo‘ydi
- Vazifani bajarishda yordamga muhtoj bo‘ldi.
- Vazifani bajarishdan bosh tortdi.

3. Sonning natural qatordagi o‘rni.

Sonning natural qatordagi o‘rnini aniqlash orqali bolalar birinchi o‘nlik sonlari ketma-ketligini o‘zlashtirish holatlari ham o‘rganildi. Natural sonlar qatorida o‘nta sonning har biri qaysi o‘rinni egallashi, sanoqda u qaysi sonidan keyin va oldin kelishi bolalardan so‘raldi.

Masalan,

- Sanoqda 4 sonidan keyin keladigan soni ayting.
- Qatorda 4 va 6 sonlari orasida turadigan soni yozing.

Sonning natural qatordagi o‘rni vazifasini bajarishda bir nafar bola natural sonlar qatorida o‘nta sonning har biri qaysi o‘rinni egallashini, sanoqda u qaysi sonidan keyin kelishini, sanoqda qaysi sonidan oldin kelishini, qaysi sonlar orasida bo‘lishini aytib berish so‘raladi.

Baholash mezonlari

- Vazifani mustaqil bajardi.
- Vazifani bajarishda xatolarga yo‘l qo‘ydi
- Vazifani bajarishda yordamga muhtoj bo‘ldi.
- Vazifani bajarishdan bosh tortdi.

4. To‘g‘ri va teskari sanash

Bolalarga 10 ichida to‘g‘ri va teskari sanash vazifasi berildi. Sanashning quyidagi turlaridan foydalandik:

1. Narsalarni bittalab qo‘shib sanash va ajratib sanash

2. Narsalarga barmog'ini tekkitib sanash.

Baholash mezonl

- Vazifani mustaqil bajardi.
- Vazifani bajarishda xatolarga yo'l qo'ydi
- Vazifani bajarishda yordamga muhtoj bo'ldi.
- Vazifani bajarishdan bosh tortdi.

5. Narsalar yig'indisini taqqoslash

«Ortiq», «kam», «teng» munosabatlarini o'zlashtirish holatini aniqlash maqsadida narsalarning ikki guruhini (katta doirachalar va kichik doirachalar, qizil doirachalar va ko'k kvadratlarni) taqqoslashga oid vazifa taklif qilindi.

Ortiq», «kam», «teng» tushunchalarini holatini o'rganish to'g'ri tarkib toptirish uchun bolalarni taqqoslayotgan guruhlardagi narsalarning biri ikkinchisidan nechta ortiq (kam) ekanini aniqlashga va ikkala guruhdagi narsalarning sonini qanday qilib tenglashtirish mumkinligini aniqlashga o'rgatish zarur.

- Qayerda ko'p (2ta va 3 ta sharchalar qo'yiladi);
- Sharchalar nechta? (3 ta)
- O'zingga shuncha sanab ol.
- O'zingga ikkita ortiq sanab ol.
- O'zingga ikkita kam sanab ol.

Baholash mezonl

- Vazifani mustaqil bajardi.
- Vazifani bajarishda hatolarga yo'l qo'ydi
- Vazifani bajarishda yordamga muhtoj bo'ldi.
- Vazifani bajarishdan bosh tortdi.

2.2. Aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlash vazifalarini o'zlashtirish holatini o'rganishdan olingan natijalar

O'quv yili boshlanmasdan o'quvchilar haqida ma'lumotlar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan tanishib chiqish kerak. O'quvchilar bilan suhbat olib boriladi. O'quvchilarni matematikadan tayyorgarligini oldindan tekshirib ko'riladi. Har bir o'quvchining sinfga matematikadan qanday tayyorgarlik bilan kelganini tekshirib ko'rish, o'qitishning dastlabki bosqichida, sinfdan mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilishda o'qituvchiga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar nomerlash vazifasini o'zlashtirganlik holatini o'rganish natijasida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

1. Sonni xosil qilish.

Sonni xosil qilish vazifasini hech qaysi bola to'g'ri va mustaqil bajara olmadi. 5 nafar bola (50%) vazifani bajarishda turli xatolarga yo'l qo'ydi. Masalan, Alisher, Saida 3 sonini xosil qilishda ikki soniga bir sonini qo'shish orqali bajarish mumkin, deb aytdi. Ammo 4 sonidan birni ayirish orqali 3 sonini xosil qilish mumkinligi haqida aytmadilar.

Vazifani bajarishda 4 nafar bola yordamga muhtoj bo'ldi

Masalan, vazifani bajarishda Maftuna 3 sonini xosil qilish vazifasini bajarishda qiyinchiliklarga uchradi. O'qituvchining yordami asosida u 2 ga 1 ni qo'shib, yoki 4 sonidan birni ayiriganda ham 3 soni xosil bo'lishini bilib oldi.

Bu jarayonda o'quvchilar yangi sonning hosil bo'lishi avvalgi songa 1 sonini qo'shish yo'li bilan hamda o'zidan keyingi sondan birni ayirib hosil qilishini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Bu vazifalarni bajarishga o'rgatishda amaliy mashqlarni bajarish katta ahamiyatga ega. Amaliy ish natijasidagina arifmetik amallarni o'rganish uchun asos yaratish mumkin, chunki bunda bolalar sonlarni xosil qilishning turli usullari bilan va sonlarning tarkibi bilan tanishadilar.

2. Sonni raqam bilan belgilash va raqamni yozish.

Sonni xosil qilish topshirig'ini bajarib bo'lganlaridan so'ng, bolalarga 1-10 gacha bo'lgan sonlarni raqam bilan belgilash vazifasi taklif qilindi. Shu maqsadda bolalardan raqamni yozish so'raldi. Vazifani hech qaysi bola mustaqil bajarib bera olmadi.

Vazifani bajarishda 3 nafar bola xatolarga yo'l qo'ydi

Sonni raqam bilan belgilash vazifasida bolalarga katakka sig'dirib yozishga ruxsat berilsa ham aqli zaif bolalar raqamlarni noto'g'ri, kataklardan chiqib ketib yozadilar. Hato qilgan o'quvchilar ichida raqamlarni «oynali yozish» holati ham ko'zatildi. Masalan, Murod 3-..., 5-..., kabi ko'rinishda yozdi. Nargiza, Azizalar 3 va 6, 9 va 2, 5 va 7 raqamlarini chalkashtirdilar.

Vazifani bajarishda 4 nafar bola yordamga muhtoj bo'ldi. Raqamlarni nuqtalar bilan belgilab berilgandan keyin ularni birlashtirib chiqdilar. 2 ta (20 %) bola vazifani bajarib bera olmadi. Ruchkani olib turli chiziqlarni chizish bilan cheklandi.

Sonlarni raqamlash ko'nikmasini hosil qilish aqli zaif bolalar uchun ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Aqli zaif bolalarning mayda qo'l motorikasini yaxshi rivojlanmaganligi ushbu vazifani bajarishda qiyinchilaklarga sabab bo'ldi. Ular raqamni bitta katakka yoza olmaydilar.

Sonning natural qatordagi o'rni.

Bu vazifa bolalarni natural sonlar qatorida o'nta sonning har biri qaysi o'rinni egallashi, sanoqda u qaysi sondan keyin va oldin kelishini qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida olib borildi.

Sonning natural qatordagi o'rni vazifasini bajarishda bir nafar bola natural sonlar qatorida o'nta sonning har biri qaysi o'rinni egallashini, sanoqda u qaysi sondan keyin kelishini, sanoqda qaysi sondan oldin kelishini, qaysi sonlar orasida bo'lishini aytib bera oldi.

Bolalardan 4 nafari berilgan sondan keyin keladigan soni topishda va bu sonning yon qo'shnilarini aytishda qiyinchiliklarga duch kelishdi va xatolarga yo'l qo'yishdi.

Masalan, Nargiza

- Sanoqda 4 sonidan keyin keladigan soni ayting.
- 3 soni keladi.

Botir esa,

- Qatorda 4 va 6 sonlari orasida turadigan soni yozing.
- 7 soni turadi, deb javob berishdi.

Tekshiruvchi yordamida 4 nafar bola vazifani bajarishdi. Tekshiruvchi ko'rgazmalar asosida vazifani nazorat qilib turgandan keyin bolalar vazifalarni to'g'ri bajarishdi.

1 nafar bola esa vazifani umuman bajara olmadi.

Sonning natural qatordagi o'rniga oid masalani hal qilish uchun eng oldin birinchi o'nlik sonlari ketma-ketligini o'zlashtirishga erishish kerak, shu sababli birinchi o'nlikda sonlar ketma-ketligini to'g'ri va teskari yo'nalishda istalgan sondan boshlab ayta olish malakasini hosil qilish uchun o'tkazilgan bu jarayonda bolalar xatolarga yo'l qo'yishdi va qiyinchilikka uchrashdi.

3. To'g'ri va teskari sanash

Sanoq malakalarini aniqlashda sonlarning ketma-ketligini to'g'ri aytishni alohida hisobga olishga, narsalarni sanashda sanoq natijasiga sonlarni to'g'ri mos qo'yishga, sanoq natijasi sanalayotgan guruhda nechta narsa bor degan savolga javob berishga diqqatimizni qaratdik.

To'g'ri va teskari sanash vazifasini hech qaysi bola to'g'ri va mustaqil ravishda bajara olmadi. 5 nafar bola xatolar bilan vazifani bajardi. Masalan, Nargiza bir, ikki, to'rt, besh, yetti, olti deb sanasa, Akmal narsalarni sanashda, ayrimlarini sanamay o'tib ketdi, ba'zi joyda uni ikki marta sanadi. Shuningdek, ular o'zlari nomlagan songa teng narsalarni ko'rsatish so'ralganda, ular son jihatdan ko'proq bo'lgan narsalarni ko'rsatishdi.

Vazifani bajarishda 4 nafar bola yordamchi savollar asosida vazifani bajarishga kirishdilar. Bolalarga narsalarni bittalab qo'shib va ajratib sanash yoki narsalarga barmog'ini tekkizib sanash so'ralganda bolalar vazifalarni bajarishda xatolarga kam yo'l qo'yidilar. Teskari tartibda sanash o'quvchilar uchun ancha qiyin kechdi.

Vazifani bir nafar bola bajarmadi.

Olib borgan izlanishimiz aqli zaif bolalarning sanash jarayoni takomillashmaganligini ko'rsatdi.

5. Narsalar yig'indisini taqqoslash

Birinchi o'nlikdagi sonlarni o'rganish davomida o'quvchilarni faqat berilgan sonni natural sonlar qatoridagi o'rni bilan emas, balki bu sonni yonma-yon turgan sonlar hamda boshqa sonlar bilan taqqoslash holatini xam o'rgandik. Ikkita tengmas to'plamni tenglash uchun ikki usuldan foydalandik: ortiqcha narsani olish yoki taqqoslanayotgan guruhlarining kamiga ikkinchisida nechta ortiq bo'lsa, shuncha narsa qo'shish kerak

Vazifani bajarishda aqli zaif o'quvchilar qiyinchiliklarga duch keldilar. Vazifani to'liq, xatolarsiz hech qaysi bola bajarib bera olmadi.

Aqli zaif o'quvchilar cho'plar sonini qayerda ko'pligini ko'rsatib bera olmadilar. Tenglashtirish uchun nima qilamiz? -degan savolga ham javob bera olmadilar.

Sharlar nechta? (3ta) savoliga bolalar javob bera olmadilar. O'zingga shuncha sanab ol deganda qo'llariga nechta cho'p tushsa, shunchani olib berdilar. Sanab ko'rchi nechta cho'p bo'ldi? -deb so'ralganda sanab berdi, ammo hammasi nechta ekan degan savolga javob bera olmadilar. O'zingga ikkita ortiq sanab ol, deganda va ikkita kam ol deganda ham vazifani tushunmadilar. Cho'plarni duch kelganicha oldilar.

Eksperimentator yordamida vazifani 5 ta (50%) bola bajarishga harakat qilidi. Eksperimentatorning yordamchi savollari asosida aqli zaif bolalar topshiriqni bajarishdi. Masalan: Lolaga chiziqni tepasiga 3 ta cho'p qo'y, pastiga ikkita cho'p qo'y, qayerda ko'p, cho'plarni yonma – yon qo'yish usuli orqali tekshirildi. Bolaga ko'rsatilgandan so'ng pastda ko'p deb javob berdi. Murod esa o'zingga uchta cho'p ol, yana ikkita ortiq va kam sanab ol, vazifasini eksperimentator ko'rsatib bergandan keyin bajardi.

Vazifalarni bajarmaslik holati bir bolada (10%) kuzatildi.

II bob bo'yicha xulosa

Olib borgan izlanishlarimiz natijasida aqli zaif bolalar nomerlash vazifalarini qiyinchilik bilan egallashlarini ko'rsatdi.

Aqli zaif o'quvchilarning tafakkurlarining konkretligi, kuzatilayotgan hodisalarni umumlashtirish malakasining bo'shligi nomerlash vazifalarini juda sekin vujudga kelishiga olib keladi. Olib borgan izlanishlarimiz aqli zaif o'quvchilar yangi bilimlarni xotirada bo'sh saqlashi va tezda esdan chiqarishi, ular tarkibi xaddan tashqari turliligi hamda matematik bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning imkoniyatlari bir xilda emasligini ko'rsatdi. Bu o'z navbatida aqli zaif bolalar nomerlash vazifalarini egallashlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli aqli zaif bolalar nomerlash vazifalarini egallash bo'yicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan, - deb topdik.

III bob. Aqli zaif bolalarga 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari

3.1. Matematika darslarida qo'llaniladigan o'yin texnologiyalari

Aqli zaif o'quvchilarga matematika fanini o'rgatish o'ziga xos qiyin kechadi. Jumladan, birinchi sinfga qabul qilingan bolalarga matematika fanini o'rgatish o'qituvchida murakkabliklar tug'diradi. Chunki, birinchi sinf o'quvchilarining matematika fani tushunchalarini o'zlashtirishga bo'lgan tayyorgarlik darajalari bir-biridan farq qiladi.

Bolalar bilimidagi va ularning fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlaridagi turli-tumanlik aqli zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Bu esa o'qituvchilardan o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, bu mas'uliyat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Har bir darsga dars mavzulari va o'quvchilar bilim darajalaridan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

2. Dars davomida darsning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, o'yinlardan foydalanish

O'yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishlash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjom-sarishta bo'lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Matematika darsida foydalaniladigan har qanday didaktik o'yinlardan asosiy maqsad - ta'limiy maqsaddir.

Ta'lim - o'quvchilarga dars jarayonida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish hamda mustahkamlashning rejali jarayonidir.

Sinf o'quvchilarining bilish darajasi va qiziqishlari matematika darsining mazmuni va sutrukturasidan kelib chiqib, uning hajmiga katta ahamiyat bergan holda, undan darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Darsning boshida o'quvchilarni shu darsga qiziktirish uchun, darsning o'rtasida yangi mavzu materiallarining yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash uchun, darsning oxirida esa egallagan matematik bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash va nazariy bilimlarni kundalik amaliy hayot bilan bog'lash maksadida kiritiladi. Yordamchi maktabning ilg'or o'qituvchilarining ish tajribasi shu narsani ko'rsatmoqdaki, matematika dasturidagi barcha mavzularda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish mumkin. Hatto, «O'nlik» mavzusidagi birinchi darslarda ham didaktik uyinlardan foydalanish imkoniyatlari katta.

Masalan: 1). «Qo'shningni top» o'yinida birinchi sinf o'quvchilari «O'nlik» mavzusidagi bir xonali sonlar ketma- ketligida har bir (1 va undan boshqa) sonning har ikkala qo'shnisini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. O'qituvchi sonlar kassasidan biror (masalan, 5) sonni olib, o'quvchilarga ko'rsatib, o'quvchilarga bu (5) sonining o'ng va chap qo'shnisi qanday sonlardan iborat bo'lishini so'rab, ularni topib, sonlar qatoriga qo'yish kerakligini so'raydi. Bu o'yinni sinf o'quvchilarining har biri bilan alohida yoki sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib xam o'tkazish mumkin. Bu o'yindan

ko‘zlangan asosiy ta’limiy maqsad, aqli zaif o‘quvchilariga bir xonali sonlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va ularni o‘ngdan chapga va chapdan o‘ngga karab sanash kunikmalarini malakaga aylantirishdan iboratdir.

«Do‘konda» o‘yini o‘quvchilarning «10 lik» ichida hisoblash ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash ta’limiy va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga mo‘ljallangan didaktik o‘yindir. O‘yindan ko‘zlangan asosiy maqsad, o‘quvchilar bilan 10 sonini tashkil etuvchilari xaqida umumiy tushunchalarni aniq tanlab olingan sonlar misolida tanlash usullari bilan tanishtirishdan iborat.

O‘yin davomida o‘quvchilar dukondan bir nechta o‘yinchoqlar sotib olishi va ularning jami bahosi 10 sonidan oshib ketmasligi kerak. Bu o‘yinining yechimi ko‘p bo‘lganligi uchun ham o‘yin yanada hayajonli va qiziqarli bo‘ladi.

— «O‘xshashlarini nomma-nom ayt», degan o‘yinda o‘quvchilar tekis geometrik figuralar ichida o‘xshashlarini ajratib, ularning nomlarini aytish orqali geometrik figuralar haqidagi bilimlarning qanchalik to‘g‘ri va mustahkam ekanligini ko‘rsatadilar. Masalan, stol ustidagi uchburchaklar, to‘rtburchaklar, doiralar, yarim doira aylanalar (yarim aylana), fazoviy figuralar va boshqa figuralar.

O‘quvchilar masalan, bu turtburchaklar qanday rangda va qanday kattalikda bo‘lishidan qat’iy nazar, to‘rtburchak, deb atalishini va ularning har biri o‘z nomiga ega (kvadrat, rom, trapesiya, parallelogramma, to‘g‘ri to‘rtburchak), deb atalishini birgalikda topishadilar. O‘yin davomida bolalarning yuzidan tabassum arimaydi va har biri faol qatnashadi.

Qiska qilib aytganda, didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari, muhimi, samaradorlik oshadi.

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion maqsad nazarda tutiladi. O‘yinining eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari bilan ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va

bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bo' tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar», «Zanjircha», «Do'koncha», «Narvoncha» o'yinida esa qariyb hamma o'quvchilar muammoni yechadilar va hokazo.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo - ishoralar vositasida bevosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Biz bilamizki, bolalar o'qishning o'zidagina o'smaydilar, balki ular o'yin jarayonida ham hamjihat bo'lishga, hayotni bilishga o'rganadilar.

Bu o'yinlarda bolalarning o'z-o'zlarini boshqarishga hamda tuta bilishga o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim. Bu o'yinlar bolalarni intizomli qiladi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

«Do'koncha», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Mehmondorchilikda»

singari o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar, fazoviy tasavvurlari mustahkamlanadi. Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqurroq va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu ishimizda qo'llaydigan ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tishimiz zarur

O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik yoshdagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari

bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i—o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday yo'nalishini, kim g'olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshirig'idir.

«Jimjitlik» o'yinida bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi ko'rsatgan belgi, sonni «xayol»da yechish va son natijasini topishdir. O'yin qoidasi — ovoz chiqarmasdan harakat qilishdir.

Didaktik material: suratlar, jadvallar, plakatlar, sanoq jadvallari, stol ustida ko'rsatiladigan teatr-shirma, abak (sanoq asbobi), o'yinchoqlar, cho'tlar; har bir bolaga beriladigan sanoq materiali: geometrik shakllar, xaltachalarga solingan dub yong'oqlar, cho'plar, qo'lda yasalgan buyumlar (qog'oz qayiqcha va shapkacha); geometrik shakllar chizilgan jadvallar, kartondan yasalgan shakllar, sxemalar solingan konvertlar; sanoq materiallari solingan individual yashiklar; geometrik shakllar solingan konvertlar va hokazo.

Sanoqqa doir didaktik o'yinlar o'zining mazmuniga ko'ra, umumiy bo'ladi, ya'ni ularni («Jimjitlik», «Narvoncha», «Eng yaxshi hisobchi» va boshqalar) butun yil bo'yi turli usullarda o'tkazish mumkin. Ko'pchilik o'yinlarni hech qanday ko'rsatmali qurolsiz o'tkazish mumkin. Odatda ulardan darsning boshlanish qismida og'zaki hisoblash o'rnida yoki darsning oxirgi qismida (3—5 minut davomida) mustahkamlovchi vosita sifatida foydalaniladi. «Jimjitlik» (bir necha usuli), «Hisoblayver», «Ketgan kim?», «Biz kamayib qoldik», «Nima o'zgardi?», «Eng yaxshi hisobchi» (bir necha turlari), «Bir-biriga qarama-qarshi», «Tingla va o'yla», «Narvoncha» (bir necha usuli), «Zanjircha» «Qo'shish yoki ayirish», «Hisoblashni qaysi son bilan boshlagan bo'lsang, o'sha son bilan tugat», «Kim aniqroq va tezroq», «Men bir sonni o'ylab qo'ydim», «Top-chi, qancha?» va boshqa o'yinlar ana shular jumlasiga kiradi.

«Buyumlarni 10 gacha sanash».

O'ynatiladigan didaktik o'yin: «Jimjitlik» (1-usuli).

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarini

aniqlash va mustahkamlash.

O‘yin topshirig‘i (bolalar uchun): konkret buyumlarni xayolda sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko‘rsatish.

O‘yinning borishi:

O‘qituvchi:

— Bolalar, hozir «Jimjitlik» o‘yinini o‘ynaymiz. Men sizlarga indamay har xil narsalarni ko‘rsataman. Masalan, mana, men qancha cho‘p ko‘rsatdim?

Bir qancha bolalar birdan gapga tushib ketadilar

— Yo‘q, bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo‘l ko‘tarish kerak. Men kimdan so‘rasam, o‘sha javob beradi.

O‘qituvchi chaqirgan bolalar doiralar, cho‘plarni sanashadi.

— Endi men sizlarga buyumlarni ko‘rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo‘lganini barmoqlaringiz bilan ko‘rsatasiz.

O‘qituvchi bitta qalam ko‘rsatadi. Bolalarning deyarli hammasi bir vaqtda bittadan barmoqlarini ko‘rsatadilar.

O‘qituvchi 4 ta qo‘g‘irchoqni ko‘rsatganda bolalarning hammasi to‘rtta barmoqlarini ko‘taradilar. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-e‘tibori topshiriqni bajarishga qaratilgan.

O‘qituvchi:

— Barakalla, hammangiz to‘g‘ri hisobladingiz. Endi men cho‘pni bir qo‘limdan ikkinchi qo‘limga olaman, sizlar esa ovoz chiqarmasdan sananglar, keyin menga qancha bo‘lganini ko‘rsatasizlar.

Bolalar indamay, o‘qituvchining harakatlarini kuzatib, sanashadi va hammalari 10 ta barmoqlarini ko‘rsatishadi.

O‘qituvchi:

— Endi kvadratlarni sananglar, - deydid, taxtachaga ketma-ket oq kvadratlarni qo‘yadi. Bolalar sanashadi. Ular oltita narsa ko‘rsatilganda oltita barmoqlarini ko‘rsatadilar. O‘yin 12 minut davom etadi.

Bu o‘rinda bolalarning birinchi o‘nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko‘rsatilsa, o‘shani barmoq bilan sanab

ko'rsatish malakasi mustahkamlanadi.

2 «To'g'ri va teskari sanash»

Bajariladigan didaktik o'yin mavzusi: «Ko'rganni eslab qolish diktanti».

Didaktik topshiriq: qo'shib sanash yo'li bilan geometrik shakllardan son qatorini tuzish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga 3—4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarning soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o'zining daftariga to'g'ri yozish.

Foydalaniладigan buymlar:

- 1) 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko'k kvadrat solingan individual konvert;
- 2) o'rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog'oz;
- 3) o'qituvchining qo'lida geometrik shakllar yopishtirilgan namunalar

Bolalar tezlik bilan ko'k kvadratlarni qo'yadilar. Oradan 5—7 sekund o'tgach, eng ziyrak o'quvchilar qo'llarini ko'taradilar. 15—18 bola 30—50 sekund mobaynida topshiriqni bajaradi. Ba'zi bolalar beparvo va befarq bo'ladilar. Masalan, bolalardan biri quyidagi uyga o'xshash shaklni teradi: (Bu yerda shakllarning nomlari bolalarga oldindan o'rgatilganligi nazarda tutiladi)

O'yinning borishi: o'qituvchi o'quvchilarga geometrik shakllar rasmi solingan konvertlarni ulashib beradi. Bolalar konvertlarni ko'zdan kechiradilar. O'qituvchi konvertlar bilan birga oq qog'oz ham ulashadi.

— Bolalar,— deydi o'qituvchi,— hamma shakllarni bir yerga to'plab, konvert ustiga, partaning chetiga qo'yinglar. O'yinni mana bunday tartibda o'ynaymiz: men sizlarga kvadratlar yoki doiralar shakllari solingan qog'oz namunasini ko'rsataman (ko'rsatadi). Sizlar esa sanab, qog'ozda qancha shakllar borligi va ular qanday joylashganligini eslab qolinglar. Uchgacha sanayman, undan so'ng namunani olib qo'yaman, sizlar esa qo'lingizdagi qizil chiziqli oq qog'ozlarga shakllarni xuddi namunadagidek joylashtirishingiz lozim.

Dastlab o'qituvchi eng oddiy usulni (kamroq shakllar rasmi solingan bir xil shakllarni) tanlaydi. — Diqqat! — deydi o'qituvchi,— ko'rsata

boshlayman bir, ikki, uch! To‘rt nafar bola esa barcha kvadratlarni qatorasiga terib qo‘ydi. Uch nafarisi doirachalarni bir chiziqqa tizishdi. O‘qituvchi bolalarga o‘z-o‘zlarini tekshirish imkonini berish maqsadida namunani ikkinchi marta ko‘rsatadi va topshiriqning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligini tekshirib chiqishni taklif qiladi. Oradan 5—10 sekund o‘tgach, namunani olib qo‘yadi.

— Endi, bolalar,— deydi o‘qituvchi,— aytinglar-chi, qancha kvadrat qo‘ydingizlar?

— Beshta.

— Barakalla, hammangiz ham g‘olib bo‘ldingiz. Endi men sizlarga qiyin namunani ko‘rsataman. Sizlar diqqat bilan qarab turing. Diqqat: bir, ikki, uch!

O‘qituvchi ikkinchi namunani ko‘rsatadi.

Ko‘pchilik bolalar birdaniga kvadratlarni qo‘llariga oladilar. O‘qituvchi ularni ogohlantirib: «Sanab chiqishni unutmadinglarmi?»— deydi.

3—4 bola ko‘zini kvadratlardan uzib, namunaga diqqat bilan qaraydi va sanay boshlaydi. Shundan so‘ng o‘qituvchi namunani olib qo‘yadi. Ikkinchi galga kelganda bolalar shakllarni birinchi galdagiga qaraganda tezroq tizadilar. O‘yin uchinchi marta o‘tkazilganda jonliroq o‘tadi, lekin doirachalar qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Shunday qilib, o‘yin paytida bolalar sanashni, shakllarni bir chiziqqa tizishni xam bilib oladilar, ana shunda shakl nomlari mustahkamlanadi va nihoyat o‘yin o‘zlashtiriladi. O‘yin bolalarni bir-biriga juda ham yaqinlashtirib yuboradi va ularda o‘yinga bo‘lgan qiziqish ortib boradi. O‘qituvchi esa o‘yin jarayonida bolalar xotirasi qanchalik taraqqiy etganligini, kimda eslab qolish xotirasi o‘sgan yoki o‘smaganligini aniqlab olishi mumkin.

Materialni puxtarok o‘zlashtirish va konkretlashtirish uchun «Teatr», «Nima o‘zgardi?» kabi maxsus o‘yinlar o‘tkazish yaxshi natija beradi.

«4 soni va raqami»

Didaktik o‘yin mavzusi: «Nima o‘zgardi?» .

Didaktik topshiriq: 4 soni tarkibinin turli usullarini mustahkamlash.

O‘yin topshirig‘i: bolalarning turgan joylarini eslab qolish, ularning joy

almashganlarini bilish (ya'ni 4 soni tarkibining yangi usulini ko'rsatish).

O'yindan ilgari og'zaki hisoblash mashqi o'tkaziladi Bolalar masala o'ylab topishadi. Masalan: Karim «Bitta daraxt bor edi, yana uchta daraxt o'tqazildi, endi daraxtlar 4 ta bo'ldi» - deydi. «Ikkita mashina turgan edi. Yana ikkita mashina ularning yoniga kelib to'xtadi, - deydi Rahim,— endilikda mashinalar soni 4 ta bo'ldi. O'qituvchi bu bolalarni doskaga chaqirib, ularning aytgan narsalari xayollarida qanday joylashtirilgan bo'lsa, o'sha narsalarni xuddi shunday tartibda jadvalga joylashtirishni taklif qiladi.

O'qituvchi: «4 sonini tarkibi necha sonlaridan iborat?»— deb so'raydi. Bolalar uzoq o'ylanib qolishadi. Nihoyat, ulardan biri 4 raqamini ko'rsatadi. So'ngra o'yin boshlanadi. O'qituvchi 4 bolani chaqirib, ularni bir safga qo'yadi. Keyin o'quvchilardan biriga bolalarning safda qanday turganlarini diqqat bilan ko'rib olishini so'ngra sinfdan chiqib tur» ishni buyuradi. O'qituvchi bolalarning birini alohida, uchtasini esa yonma-yon qo'yadi Tashqariga chiqqan bola kirib keladi. O'zgarishni ko'rgach: «Uch o'quvchi bir joyda, bittasi alohida turibdi», - deydi.

— Jami qancha?—deb so'raydi o'qituvchi. - To'rt kishi,— javob beradi o'quvchi.

— Demak, to'rt sonini qanday hosil qilish mumkin.

— Uchga birni qo'shib.

O'qituvchi doska oldiga boshqa o'quvchini chaqiradi. U ham safda turgan bolalarga bir nazar tashlab, tashqariga chiqadi. Qaytib kirgach: «Ilgari chap tomonda uch kishi, o'ng tomonda bir kishi turgan edi, endi esa har ikkala tomonda ikkitadan kishi bor»,— deydi.

— Bunga qanday erishildi?— so'raydi o'qituvchi.

— Uchta bo'lib turganlardan biri yakka turgan bolaning yoniga o'tib olibdi.

— Demak,— deydi o'qituvchi,— 4 sonini yana qandan hosil qilish mumkin ekan?

— Uchga birni qo'shib,— javob beradi o'quvchi. So'ngra uchinchi

o'quvchi sinfdan chiqib turadi. O'qituvchi uch bolani birga, bittasini alohida qo'yadi. Sinfga qaytib kirgan o'quvchi yuz bergan o'zgarishni aytadi:

— Ilgari ular ikki kishidan turishgan edi, endi esa bu yerda bir, anavi yerda uch kishi bo'lib qolibdi.

— Qaysi tomondagilar ko'pchilikni tashkil etib-di? Mana bu tomondagilarmi, Ibrohim? To'g'ri. Demak, 4 soni yana qanday hosil bo'lar ekan?

— Birga uchni qo'shish yo'li bilan,— deb javob beradi o'quvchi.

So'ngra o'qituvchi butun sinfga murojaat qilib:

— 4 soni qanday hosil bo'ladi?— deb so'raydi. Ko'pchilik o'quvchilar javob berish uchun qo'l ko'taradilar chaqirilganlar to'g'ri javob berishadi:

— To'rtta birdan, uch bilan birdan, ikki bilan ikkidan, bir bilan uchdan.

O'yin jonli va qiziqarli o'tadi. Alohida-alohida so'rash natijasida doskaga chaqirilgan o'quvchilarnigina emas, sinfda o'tirgan boshka o'quvchilarning ham to'rt sonining tarkibini yaxshi tushunganlari aniqlanadi. O'yin besh minut davom etadi. Shundan so'ng o'qituvchi bolalarni 4 raqami bilan tanishtiradi.

Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zihnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Dam olish daqiqalarida og'zaki topshiriqlar aytib o'quvchilar faolligini oshirish mumkin.

3.2. O'yin texnologiyalari yordamida aqli zaif bolalar og'zaki hisoblash malakasini shakllantirish.

Matematik bilimlar mustaqil fikrlash asosida ongli o'zlashtirilgan bo'lsagina mustaxkam bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, mustaqil izlanuvchanlikka, xulosalar chiqarishga umumlashtirishga undovchi metodlarni izlaydi. Turli ta'limiy o'yinlardan foydalanadi.

O'quvchilarni og'zaki hisoblashga o'rgatishning muhim yetakchi metodlardan biri didaktik o'yinlardir. Bolalar fakat o'qish mobaynida o'rganib qolmay, balki o'yin jarayonida ham o'rganadilar. Bunda didaktik o'yinlarni dastur talabiga mos ravishda tanlash kerak bo'ladi. O'yin vaqtida bola faoliyati

aktivlashadi, ularning diqqati va xotirasi rivojlanadi.

1 sinf matematika darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini rivojlantirishda "O'ringni top", "Kim oldin", "Chapaklar", "Topishmoq" kabi o'yinlar katta yordam beradi.

O'ringni top o'ynini kuyidagicha o'tkaziladi. Qizlar juft raqamlarni 2, 4, 6, 8, 10, O'g'il bolalar toq sonlarni 1, 3, 5, 7, 9, va (+) (-) (=) ishoralarini ushlab doira shaklida turadilar. Xat tashuvchi qizlarga xat olib keladi. Masalan:



1-o'quvchi




2-o'quvchi



3-o'quvchi

Shu raqamlarni bolalar va ularning javoblari doiradan chiqib, misol kabi turib olishlari kerak. O'z o'rnini tezda to'g'ri topgan bola o'yin g'olibi bo'ladi.

"Kim oldin" o'yini guvoh bo'yicha o'tkaziladi. Bunda 3 ta o'quvchi doskaga chiqarilib, musobaqa sharti tushuntiriladi. Kim oldin 5 ta chizish:



Qaysi o'quvchi tez va chiroyli chizsa, o'sha qator g'olib chiqadi.

"Chapaklar" o'yini o'quvchilarning eshitib, sanash qobiliyatlari oshiriladi. Necha marta qarsak urilsa o'sha son xosil bo'ladi. Bolalar buni tinglab, ichlarida sanab turadilar. To'g'ri sanagan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

"Topishmoq" o'yini ham juda qiziqarli. O'quvchilardan biri "Menda hammasi bo'lib 5 ta cho'p bor, 1 ko'limda 3 ta, 2 qo'limda nechta bor?", deb so'raydi. Bolalar javob beradilar. O'yin shu tariqa davom etadi.

"Sonning tarkibini toping" o'yinida magnit do'skasida 9 rakami ko'rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligini so'raladi. O'quvchilar magnit do'skasida ko'rsatishadi.

$$8 + 1 = 9$$

$$6 + 3 = 9$$

$$7 + 2 = 9$$

$$5 + 4 = 9$$

Bu o'yin orqali o'quvchilar sonining tarkibini aniqlaydilar.

“Mohir hisobchi” o'yinida sinf taxtasiga 3 ustundan iborat millionlar yoziladi. Har bir qatordan 1 tadan o'quvchi chiqariladigan tegishli ustundagi misolni yechiladi. Tez bajargan o'quvchi mohir hisobchi bo'ladi.

“O'ylab top” o'yini boshlangich siniflarning hammasida, o'zlari uchun ajratilgan hisob vaqtlarida o'tkaziladi. Bu o'yin bolalarda qiziqishni, faollikni kuchaytiradi. Duskada bir necha misollar berilgan bo'ladi. O'qituvchi aytadi: - bu misollardan birining javobi 8. Men qaysi misolni yechdim. O'quvchilardan biri javob beradi. O'qituvchi shu tariqa, hamma misollar yechilib tamom bo'lguncha, o'yinni davom ettiradi.

“Kim tezroq” o'yini uchun sonlar yoziladigan kvadratlardan foydalaniladi. 4 ta o'quvchini chiqarib, ularga kvadratlarga yozilgan sonlarning qatori ko'rsatiladi. Kim o'ziga berilgan qatordagi sonlar yig'indisini tezroq va to'g'ri aytsa, shu o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bunday jadvallar sinfga va bolaning bilimiga qarab tuziladi. Buni ko'proq qo'shish ayrishni o'rgatishda qo'llash mumkin:

2 5 1 2

4 1 2 2

4 3 1 1

Tomoshabinlardan tashqari bolalarga raqamlarga oid she'rlar berish ham ularning qiziqishlarini orttiradi. Ulardan misollar keltiraylik.

Shohdadir 7 qush,

Uchib ketsa 5 tasi

Bu shohdadir 3 qush,

Shohda qolar nechitasi?

A'zam tutdi 4 sazan,

Bolta tutdi 2 laqqa

Botir tutdi 3 cho'rtan,

Nechta baliq chiqdi qirg'oqqa?

Oyim berdi 5 anor

O‘zimda ham 3 ta bor

Sanab bilsang ayta qol

Menda nechta anor bor?

O‘zimda bor 5 yong‘oq

CHo‘ntagimda 2 tasi

Do‘stimda ham shuncha bor

Hamma yong‘oqlar qancha?

O‘quvchilarning o‘zlari hisoblashga o‘rgatishning yana bir usuli evristik suhbatdir. Bunda o‘qituvchi tayyor bilimlarni o‘yin xarakteriga ega bo‘lgan savollar orqali o‘quvchilarga beradi:

a) 1 tovuq bir oyog‘i bilan tursa, 3 kg 2 oyog‘i bilan tursa necha kg bo‘ladi?

b) Qaynagan suvda 1 ta tuxum 3 minutda pishadi, 3 ta tuxum necha minutda pishadi?


v) Eng kichik 2 xonali son, eng katta bir xonali sondan qancha katta?


g) Bir bola ko‘chadan 5 so‘m topib oldi. Ikkinchi kishi chiqsa necha so‘m topar edi?

Ushbu savollar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va turli miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashga o‘rgatib boradi.

Boshqotirma

O‘zbekistondagi shahar va viloyat nomlari






Matematik o'yinlarni ham ko'rib chiqamiz: matematik o'yinlar

“Qiziqarli kvadrat” o'yini

0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni bo'sh kataklarga shunday joylashtiringki, istalgan yo'nalishdagi sonlar yig'indisi 15 ga teng bo'lsin.




“Loto” o'yini.

O'qituvchi stol yonida turib, ko'paytirish jadvaliga tegishli birorta soni ko'rsatadi, masalan, besh. Bolalarning qo'lidagi kartochkalarda esa ko'paytirishga doir misollar bo'ladi. Ular tegishli kartochkalar 5×4 ; 4×5 ni ko'rsatishlari mumkin.

“Doirani aylantirish” o'yini.

Bu o'yindan maksad o'quvchilarda hisoblash malakasini xosil qilish. Doira rasimda ko'rsatilgandek, sonlar yozishib, doira tashkarisida 1 ta son belgilanadi. So'ng 2 o'quvchi doskaga chiqariladi. Ulardan biri doirani aylantiradi. Nuqta to'g'risiga qaysi son kelib to'xtasa, o'sha sonlarga qarab avval qo'shish, keyin ayirishga doir misol tuzadi va yechadi. Keyin navbatdagi 2 ta

o'quvchi chiqadi va o'yin shu tariqa davom ettiriladi.



“Bir sonning o'rniga ikki son” o'yini.

Bu o'yindan maqsad yangi o'tilgan son tartibini o'rganish.

Bu o'yinda hama o'quvchilarning oldidav rakamli kartochkalar bo'ladi. O'qituvchida kattarok rakamli kartochka bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga kattarok son kartochkasini ko'rsatadi, masalan 4. O'quvchilarga tarkibi 4 bo'ladigan 2 va 2, 3 va 1, 1 va 3, raqamlarini ko'rsatadilar. To'g'ri ko'rsatgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

“O'qituvchi” o'yini.

Bu o'yindan maqsad, geometrik shakllarini farqlay bilishiga o'rgatish.

Bu o'yinda bolalardan biri o'qituvchi vazifasini o'taydi. U bolalarga biror shaklni ko'rsatadi, uni nima deb atalishini so'raydi. Bolalar o'qituvchiga javob berganda javob beradilar. Shu tariqa boshqa bolalar ham o'qituvchi bo'lib, o'yinni davom ettiradilar.

“Kim tezroq aytadi” o'yini.

O'yin maqsadi tez va to'g'ri aytish malakasini o'stirish.

O'yinda o'qituvchi sonlarni aytadi. O'quvchilar aytilgan sondan oldin keladigan, keyin keladigan sonlarni aytishi kerak. Masalan, sanaganda 4 dan oldin qaysi son keladi? 3 dan keyin qaysi son keladi? 8 dan oldin-chi? kabi savollarga javob bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Matematik o'yinlar, avvalambor sinfda o'tkazilgan har bir darsni mustaxkamlash uchun olib boriladi.

Sinfdan tashqari ularning asosiy shakllardan qiziqarli matematika soatlari minutlari ham bolalarni bu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, yana bilimdon, hozir javob, bilimlarni ixtiyoriy ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

1-sinfda qiziqarli matematik soatlarining taxminiy konspekti. Bugun biz qiziqarli matematika darsi o'tamiz. Nima bilan shug'ullanishimizni hozir bilib olasiz. Juda ziyrak bo'lishingiz kerak. Mening beradigon savollarimga o'ylanib javob beringlar. Savollarimga kim tez va to'g'ri javob bersa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

1 - "O'ylab top"

Beshta g'oz bizning ustimizdan uchib o'tdi, 2 tasi bulut tepasidan o'tdi, 2 tasi daraxtga qo'ndi. Nechta g'oz havoda?

2 – topishmoqlarni toping va masalalarni yeching.

Yolimni biri tor 2 chiroqcha

Chiroqcha ustida pilik qalamcha.

(Ko'z, kosh).

Ikkita uchi bor-u, ikki xalqali o'rtasida bitta tixchasi

(qaychi).

Og'zida 4 tishi bor, yegani pichan

Qani, ayting bolalar, bu nima ekan?

(rasmi ko'rsatiladi) (payshaxa)

Biri qo'yadi, ikkinchisi ichadi, uchinchisi o'sadi (yomg'ir, yer, o'simlik)

Bola o'ndan o'nni ayirgan, o'n xosil qilgan. Bu qanday bo'lgan?

(qo'lqoplarni yechgan)

Bir likopchada 4 ta nok bor. Bu noklarni 4 nafar o'quvchiga teng bo'lib bering va likopchada faqatgina bitta nok qolsin.

(1 ta nok o'quvchiga likopchasi bilan beriladi).

Mening 8 ta oshnam.

Hammasi ham mendan kam

Sen 10 gacha sanasang

Meni aytmay ko'ymasang.

(To‘qqiz)

Sulton tutdi 3 cho‘rtan 4 sazan

A‘zam tutdi 2 laqqa

Necha baliq chiqdi qirg‘oqqa (9 baliq)

“O‘ng tomon, chap tomon” o‘yinini o‘tkazish.

Maqsad o‘ng va chap tomon tushunchalarini anglashdan iborat. O‘ynovchilar soni cheklanmaydi.

O‘ynovchilar 2 guruhga bo‘linib, qator turadilar. Har 2 qator boshqaruvchining buyrug‘iga binoan qarama-qarshi tomon yuradi. Boshqaruvchining “o‘ngga”, “chapga” degan buyrug‘i bilan o‘quvchilar tegishli tomonga buriladilar va to‘xtaydilar. Yanglishgan o‘yindan chiqadi. O‘yin davom etadi. Qaysi guruhda o‘quvchi ko‘p qolsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Ikki teng kvadratdan qanday to‘g‘ri uchburchak yasash mumkin?

Kvadrat shaklidagi kog‘oz varog‘idan shunday konvert yasash mumkin?

Mashg‘ulot yakunida, albatta, umumlashtiruvchi yakun bo‘lishi kerak. Keyingi mashg‘ulot uchun o‘quvchilar istak-xohishlari va fikrlari so‘raladi.

Bizning kun o‘yini

O‘yinning maqsadi: Bolalarning sutka qismlari ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

O‘yin jihozlari: Kun davomida ketma-ket davom etadigan xilma-xil faoliyatlar tasvirlangan rasmlar (foto rasmlar): o‘rinni yig‘ishtirish, nonushta, mashg‘ulot va boshqalar.

O‘yinning borishi: Rasmlar o‘yin qatnashchilariga tarqatiladi. Boshlovchi o‘zida birinchi rasmni qoldiradi. U o‘yinni boshlaydi: «Alisher bilan Dilshod ertalab turib o‘rnini yig‘ishtirmoqda». Boshlovchi o‘zidagi rasmlarni bolalar oldiga qo‘yadi. Keyingi rasm kimda bo‘lsa o‘sha bola «Ular yuvinishyapti» deb davom etadi va rasmni uning o‘ng tomoniga qo‘yadi va hokazo. hamma rasmlar tartibi bilan qo‘yib bo‘lingach o‘yin tugaydi.

Hafta kunlari o'yini

O'yinning maqsadi: hafta kunlarini eslab qolish.

O'yinning borishi: Yettita bola doskaning oldiga chiqariladi. Bolalar qator bo'lib turadilar. O'qituvchi bolalardan nechta bola doska oldida turganini so'raydi. Shundan keyin tartib bilan sanaydilar. Tarbiyachi doskaga chiqqan bolalar hafta kunlari ekanligini aytadi va tartib bo'yicha ularning o'rinlarini ko'rsatadi. Kimda - kim shu o'rinda tursa, o'sha bola bir qadam oldinga chiqadi va haftaning qaysi kuni ekanligini aytadi. Birinchi turgan bola yakshanba, ikkinchi turgan bola dushanba va hokazo. Bu o'yin ikki marotaba takrorlanadi.

3.3. Ko'rgazma qurollardan foydalanish orqali aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlashga o'rgatish

Ijodiy fikrlash – bu o'quv jarayonidagi hayotda yuzaga keladigan masalani, misolning yozilishi yo'llarini so'zlashdan iborat. Shunday ekan, o'quvchilarga topshiriqlar, muammoli savollar, ijodiy masalalar berish, ularni ijodkorlikka, fikrlashga, o'ylashga o'rgatadi. Shuningdek, masalani to'g'ri va teskari yechadi. Unda sonlar o'ylaydi, fikrlaydi yoki sonning tarkibiga doir misollar yechishda ham sonni tezda topadi.

Aqli zaif bolalar ko'rgan narsalarini esda saqlab qolishlari uchun ko'rgazmali qurollarni did bilan ishlatishiga bog'liq. Aqli zaif bolalar esda olib qolish va bilish usullariga o'rgatishida, ba'zi hollarda bolalar ko'rgazmadan bevosita ta'sirlanishi darajasida uzoq vaqtga esda olib qolmaydilar. Bolalar biror rasmni ko'rganda uning mazmuniga bog'liq holda o'z o'yinlari, shaxsiy o'z hayolidagi ba'zi voqealarni hikoya qiladi. Rasmni kuzatishlari orqali ularni bir-birlariga solishtiradi, o'xshashlik va farqini topadi, tomonlarini aniqlaydi, kuzatgan narsalar haqida mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Shu bilan birga fikrni izchil bayon qilish ko'nikmalarini hosil qiladi. Hozirgi hayotimizning o'ziyoq

yosh avlodni o‘stirish va tarbiyalash jarayoni sifatini yaxshilash, uning samaradorligini tobora oshirish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ishga solish, ko‘rsatmalilikdan omilkorlik bilan foydalanish, ta’limning texnika vositalarini kengroq qo‘llash zarurligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shunga ko‘ra ijodiy yasalgan ko‘rgazmalar orqali o‘quvchilarni matematika darslarida ijodiy fikrlashga o‘rgatib borish yaxshi natijalarni beradi.

Matematika fanidan 1 soatlik ochiq dars bayoni.

Darsning mavzusi: 10 ichida qo‘shish va ayirish.

Darsning mohiyati:

Ta’limiy maqsad:

1. 10 ichida raqamlash, to‘g‘ri va teskari sanashga o‘rgatish.
2. Mustaqil misol, masalalarni yechishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad:

1. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil madaniyatni shakllantirish.
2. Mustaqil, ijodiy fikrlash va hozirjavoblik xislatlarini tarkib toptirish.

Darsning jihozi: ko‘rgazma, misol, masalaga doir rasmlar, test savollar, darstaxta, oynai jahon.

Darsning borishi:

Darsni tashkil qilish.

O‘quvchilarning tayyorgarligini kuzatish.

Navbatchi hisoboti orqali sana, davomat, vazifani aniqlash.

Dars she’r bilan boshlanadi:

Hisoblashni o‘rgatgan,
To‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgan.
Matematikadir, bu,
Matematika.

O‘tilgan mavzuni esga olish.

1. 10 gacha kim to‘g‘ri sanab beradi?

2. 10 dan teskari sanatish.

Test-savollari bilan ishlash.

Misolni yeching.

	A	V	S
$5+4=$	10	9	7
$6+4=$	8	9	10
$10-3=$	9	7	8
$7-4=$	3	9	8

Darsga oid filmdan qo‘yib, turli masala tuzdirish.

Oynai jahondan ham darsda unumli foydalanish mumkin. Masalan: darsning xohlagan paytida oynai jahondan masalaga doir rasmlar chizdiraman.

Masalan: Donxo‘rakda 6 ta chumchuq don cho‘qiyapti, 2 tasi uchib ketdi qancha qoldi? Javobi: 4 ta.

Masala tuzgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish.

Savol: Tramvaydan 2 ta odam tushganidan keyin, unda 4 ta odam qoldi. Tramvayda nechta odam bo‘lgan?

Javob: $2+4=6$

Tramvayda 6 ta odam bor edi. Bekatda 2 ta odam tushib qolgandan keyin tramvayda nechta odam qoldi? Javobi: $6-2=4$

Dam olish daqiqasi.

Malikaning stolida 4 ta qalam,

Akbar unda qo‘shib qo‘ydi 4 ta shu dam.

Sanab biling, sanab biling,

Nechta qalam, nechta qalam.? (8 ta)

Misol. “Kim chaqqon ?” o‘yinini o‘ynash.

Ko‘rgazmadan foydalanib, misolni tez va to‘g‘ri ishlash. 8 sonini xosil qilish

2	.	6
.	4	.

Raqamlar ishtirok etgan maqollar ayttiraman.

Sanamay sakkiz dema.

Yetti o'lchab, bir kes.

Besh barmoq, bir-biriga esh barmoq.

Birni kessang, o'nni ek.

Matematik diktant yozish.

4 bilan 5 ning yig'indisini toping.

10 bilan 3 ning ayirmasini toping.

8 qanday sonlar yig'indisi?

Dars yakunida o'quvchilarni baholash.

Uyga vazifa 5-misolning 3-ustunini yechib kelish.

Yakunlash.

Matematika fanlar ichida eng qiziqarli fandır. O'quvchilar uchun bir xil usulda dars o'tish zerikarli. Ularni qiziqtirish uchun turli ko'rgazmalardan foydalanish unumlidir. Masala tuzish bolalar uchun juda qiziqarli, uni yechish esa undanda maroqli. Masalani tuzish uchun qisqa yozuvni har kun darsga ko'rgazma tayyorlab foydalanishdan ko'ra, magnitli taxta tayyorlab, unga har kuni tayyor masalaning qisqa yozuvini yozib qo'yish ijobiy natijalarni o'ylab chiqdim. Bu esa o'qituvchini vaqtdan unumli foydalanish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

Magnitli taxta harflar, raqamlar.

1-masala. Q.yozuv.

Bor edi-9 kishi

tushdi-3 kishi

qoldi-?

yechish: $9-3=6$

javob: 5 kishi.

Sonning tarkibini topish.

Magnit taxtadan 7 raqamini ko'rsataman. "Uning tarkibini toping va 7 raqamini hosil qiling," – deyman. Bolalar:

$$4+3=7$$

$$5+2=7$$

$$6+1=7$$

$$3+4=7$$

kabi misollarni yozadilar.

"O'ylab keyin so'yla !" o'yin mazmuni bilan tanishtiraman. Avval misollarni ko'rgazmaga yoki yozuv taxtasiga yozib qo'yaman. Hammani mustaqil ishlashga undayman.

$$\diamond 2=10$$

$$3*\uparrow=4$$

$$\diamond 2=4$$

$$1*\uparrow=4$$

$$\diamond 2=8$$

$$2*\uparrow=4$$

$$\diamond 2=6$$

$$0*\uparrow=4$$

Bu o'yin orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari o'stiriladi. Bu o'yin orqali amallarni bajarishni o'rganadi, ijodiy fikrlaydi.

"Marraga kim yetib keldi?".

Sinfni 2 guruhga bo'laman. Tartib bilan chiqib, misolni yechib keladi. Marradagi misolni g'olib chiqqan o'quvchi yechadi.

$$5+5=$$

$$6+2=$$

$$8+2=$$

$$7+3=$$

$$4+5=$$

$$5+4=$$

$$7+2=$$

$$4+3=$$

$$6+3=$$

$$4+5=$$

$$6+1=$$

Demak, 2-guruh o'quvchilari 1- bo'lib marraga yetib kelishdi. G'oliblarni rag'batlantiraman. Baholash. Darsni yakunlash.

O'yin – Musobaqa – Dars.

O'quvchi maktabga kelguncha uning asosiy mashg'uloti o'yin bo'ladi. O'yinda epchillik, hozirjavoblik va sinchiqovlik kabi ijodiy sifatlar ham muhim ahamiyaga ega.

Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Endi unig vazifasi o'zgaradi. Bir kecha-kunduz davomida o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga jamlab, ma'lum tartibga rioya qilgan holda o'qituvchi bilan muloqotda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ayni shu vaqtda o'qituvchi loqayd, uquvsiz, mahsuliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishga ojiz, nazorat qilishga "vaqt yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar tartibsiz, bo'sh o'zlashtiruvchi, yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi, o'quv mashg'uloti qiziqish uyg'otadi. Bu ishni amalga oshirish uchun quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish mumkin:

1-topshiriq. Tez hisobla.

$$\begin{array}{cccccccccc} & 3 & & & ? & & & 9 & & \\ 4 & + & ? & 7 & + & 2 & ? & + & 5 \end{array}$$

3.4. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali aqli zaif bolalarni 10 ichida nomerlashga o'rgatish

Aqli zaif bolalarni nomerlashga o'rgatishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashda ahamiyatli ekanlinigi dalillamokda.

Quyida shu maqsadda yo'naltirilgan bir necha usullarni keltirib o'tamiz. Aqli zaif bolalarda nomerlash vazifalarini o'zlashtirishlari, erkin fikr yuritish, munosabatini bimalol bayon qilishiga o'rgatish uchun R. Djonson, D.Djonson usuli 3-4 o'quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usul nihoyatda samaralidir. Masalan, sinfdagi bir o'quvchi qur'a tashlash yo'li bilan tanlanadi. Sinf o'quvchilari muayyan qoidaga ko'ra (soniga ko'ra, ixtiyoriga

ko'ra) ikkiga bo'linadi. Ikki guruh o'quvchilari bir bo'lak qog'ozga ta'rifga asoslanib, misolni yozadi hamda yozgan javoblarini taqqoslashadi. To'g'ri bajarganlinigi ko'rgazma, tarqatma materiallar asosida ko'rsatib berishadi.

Masalan, ikki bilan to'rt soni orasida nechki soni keladi? Bolalar tarqatma materiallar asosida ko'rsatib berishadi. Uni raqamdagi ifodasini xam ko'rsatishadi.



Aqli zaif o'quvchilarga nomerlash vazifalarini berishda Sink-veyn metodini qo'llash samarali natija beradi. Buning uchun bolalarga quyidagi raqamlar beriladi va uni orasidagi raqamlarni aytish so'raladi. 3...5; 5....7; 7....9; 6....8.

Sxema quyidagi tartibda to'ldirilishi shart:

- muayyan mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi yoki o'quvchilar tomonidan tanlanadi.
- mazkur mavzuni xarakterlovchi ikki sonni aytish taklif qilinadi.
- guruxdagi bolalardan shu sonlar orasidagi sonlarni ketma-ketlikda aytish so'raladi.

Namuna:

3....8,


3,4,5,6,7,8.

Ushbu usul maktab o'quvchilarini mustaqil ijodiy ishlashga o'z fikrlarini erkin bayon qilishga undaydi.

Aqli zaif bolalarni to'g'ri sanash malakalarini shakllantirishda quyidagi usul ijobiy natija beradi:

1 dan 10 gacha raqam yozilgan kartochkalar bolalarga tarqatib beriladi. Bolalardan 1 dan 10 gacha ketma-ketlikda saf turish so'raladi. Har bir bola o'zidagi raqam nechki ekanligini aytib o'tadi. Shuningdek, o'ngacha raqam yozilgan qog'oz bo'laklari o'qituvchi stoliga qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarga «omadni sinab» ko'rishni so'raydi. Qaysi o'quvchiga nechki soni chiqsa, shuncha nomerlash vazifalaridan xohlagani bo'yicha og'zaki misollar aytishadi. Aqli zaif

o'quvchilarda nomerlash vazifalarini shakllantirishda Klaster metodi unumli ekanligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Klaster metodi umuman bir tushanchaga oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur xosil qilish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilardan 8 sonini tarkibi so'raladi. Bolalar uning tarkibini aytishadi.




O'tkazishdan maqsad. fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish.

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o'quv muassasalar

Qo'llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo'llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o'tkazish qoidasi: Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to'rt burchak markazida avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar. Uning yechish g'oyalarini esa markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozadilar. Markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozilgan g'oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya'ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning xar biri o'z navbatida yana bir muammodek ko'riladi.



“Poyezd” texnologiyasi


O‘tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish.

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o‘quv muassasalar

Qo‘llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo‘llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o‘tkazish qoidasi: Bolalar “Poyezd” texnologiyasi qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar poyezdning vagonchalariga shunday son birliklariga oid misollarni yozishlari kerak-ki, ular vagonchalarga o'sib borish tartibida joylashgan bo'lishi kerak.



“Domino ” texnologiyasi.


O‘tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o‘quv muassasalar

Qo‘llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo‘llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o‘tkazish qoidasi: Bolalar “Domino ” texnologiyasi” ni o‘tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar dominoda ko‘rsatilgan nuqtalarga mos ravishda bo‘sh kataklarga sonlarni joylashtirib chiqishadi va amalning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirishadi.



“Moychechak” texnologiyasi


O‘tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o‘quv muassasalar

Qo‘llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo‘llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o‘tkazish qoidasi: Bolalar “Moychechak ” texnologiyasi” ni o‘tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar moychechakning yaprog‘ining bo‘sh qolgan joyiga shunday sonni yozishlari kerak-ki, ularda ko‘rsatilgan sonlarning yig‘indisi moychechak markazida ko‘rsatilgan songa teng bo‘lishi kerak. Bolalar ketma- ketlikda kichik guruhlariga bo‘linib, yoki mustaqil bu ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi. Texnologiyaning to‘g‘ri bajarilayotganligi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.



“Uycha” texnologiyasi

O‘tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish


ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o'quv muassasalar

Qo'llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo'llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o'tkazish qoidasi: Bolalar "Uycha" texnologiyasi" ni o'tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar uychalarda berilgan sonlarni namunaga ko'ra ularga tegishli bo'lgan mos tomlarni qo'yib birlashtirishlari kerak. Bolalar ketma-ketlikda kichik guruhlariga bo'linib, yoki mustaqil bu ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Texnologiyaning to'g'ri bajarilayotganligi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.



“Oyla,izla,top” texnologiyasi

O‘tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira,diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o‘quv muassasalar

Qo‘llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo‘llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira,diqqat, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o‘tkazish qoidasi: Bolalar “Oyla,izla,top ” texnologiyasi” ni o‘tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar kataklarda berilgan songa mos keladigan sonni sonlar qatoridan topishlari va belgilashlari kerak bo‘ladi.

Bolalar ketma- ketlikda kichik guruhlarga bo'linib, yoki mustaqil bu ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Texnologiyaning to'g'ri bajarilayotganligi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

5	1 2 3 4 <u>5</u>
2	1 2 3 4 5
3	1 2 3 4 5
4	1 2 3 4 5
1	1 2 3 4 5

“X” texnologiyasi

O'tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o'quv muassasalar

Qo'llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo'llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o'tkazish qoidasi: Bolalar “X” texnologiyasi” ni o'tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar kataklarda berilgan misollarning javoblarini qarama-qarshi katakdagi sonlardan topishlari kerak bo'ladi va ularni o'z navbatida chiziqcha yordamida birlashtirib qoyishlari kerak bo'ladi. Bolalar

ketma- ketlikda kichik guruhlarga bo'linib, yoki mustaqil bu ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Texnologiyaning to'g'ri bajarilayotganligi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

10-1	8
6+2	9
5-3	9
8+1	2
4+3	10
7+3	7
2+1	9
4+5	3

“6x3” texnologiyasi

O'tkazishdan maqsad: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish

Muassasa turi: ommaviy va maxsus o'quv muassasalar

Qo'llanilishi: dars jarayonida yangi mavzu bayonini mustaxkamlash va takrorlash darslarida, shuningdek nazorat darslarida qo'llaniladi.

Xizmat qiladi: Tizimli fikrlash, xotira, diqqat, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Metodni o'tkazish qoidasi: Bolalar “6x3 ” texnologiyasi” ni o'tkazish qoidasi bilan tanishadilar. Bolalar kataklarga berilgan katta kichik teng belgisiga

oid o'nlik sonlarini shunday qoyib chiqishlari kerak-ki bunda amal to'g'ri bo'lsin .Bolalar ketma- ketlikda kichik guruhlariga bo'linib, yoki mustaqil bu ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Texnologiyaning to'g'ri bajarialyotganligi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Taqqoslash belgilariga mos ravishda o'nlik sonlarini qoyib chiqing		
5	<	6
	<	
	=	
	>	
	<	
	=	

III bob bo'yicha xulosalar

Olib borilgan izlanishlarimiz va tavsiya etilayotgan korreksion-pedagogik ishlar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- O'qituvchi pedagogik texnologiya tushunchasini, uning mazmun va mohiyatini bilishi;
- kiritilayotgan pedagogik texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rnini va rolini bilishi;
- pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash metodlarini bilishi;
- darsning rejasi yoki loyihasini aniq ishlab chiqishi;
- talimiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- ta'lim jarayonidagi bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, namunaviy o'quv darslarini o'tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallagan bo'lishi kerak.

Xulosa

Aqli zaif bolalarning matematikani muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari ko'pincha bir tomondan, ularning matematik bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlariga va qiyinchiliklarni hisobga olishga, ikkinchi tomondan aqli zaif bolalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olishga, shuningdek matematika o'qitishni to'g'ri rejalashtirish va tashkil qilishga bog'liq.

Maxsus pedagogik-psixologik, metodik adabiyotlar tahlili ushbu muammo bo'yicha deyarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligini ko'rsatdi.

Tajriba sinov natijalari, aqli zaif bolalarda mavhum umumlash, atrof muhitdagi narsalar va voqealar o'rtasidagi aloqa hamda bog'liqlikni belgilay olmaslik, tahlil va sintez qilishga qobiliyat yo'qligi, tafakkuri yaqqol-obrazli situatsion xarakterdaligi va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi sababli nomerlash vazifalarini bajarishda xatolarga yo'l qo'ydi.

Yordamchi maktab o'quvchilarini 10 ichida nomerlashni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosi bo'yicha deyarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligini kuzatdik. Yordamchi maktab o'quvchilarini bilim va amaliy ko'nikmalari holatini tadqiq qilish asosida, biz quyidagi xulosalarga keldik:

- o'n ichida nomerlash vazifalarini har biri ustida amaliy mashqlardan keng foydalanish;

- yordamchi maktab o'quvchilariga o'n ichida nomerlash vazifalarini o'rgatishda pedagogik texnologiya uslublaridan foydalanish;

- har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiya uslublaridan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: «O'zbekiston » , 2003
2. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997
3. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura» T.: «O'zbekiston» ,1996 yil
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: - 1997 y.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997 y.
6. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» T.: 1999 yil.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. «O'zbekiston» - 1998 4-12 betlar.
9. Aytmetova S.SH. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanishining xususiyati. T.: O'qituvchi. 1984 y.
10. Axmedov S.A. O'rta Osiyoda matematika o'qitish tarixidan. T.: O'qituvchi. 1977 y.
11. Анропов А.П. «Методика и технология обучение математика школьников с недоразвитием интеллекта» СПб: Издво РГПУ 2001 г.
12. Boshlang'ich va Defektologiya ta'limining samaradorligini oshirish masalalari (Ilmiy metodik maqolalar to'plami) T.: 2000 yil.
13. Bikbayeva, Girfanova K.M. «Matematikadan og'zaki maqshlar» (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) -T.: 1999
14. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: 1995.
15. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии; -М.: Педагогика, 1989
16. Занько, С.Ф. Игра и ученье/ С.Ф. Занько, Ю.С. Тонников, С.М. Тюнникова // Теория, практика и перспективы игрового обучения: в 2-х частях. — Минск.: 1992. - Ч.1. – 128с
17. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. –T.: 2004.

18. Yoʻldoshev J.Gʻ., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. Qoʻllanma. –T.: 2009.
19. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. –М.: Знание, 1989.
20. Levenberg L.SH., Axmedjanov I.G., Nurmatov A.N. Boshlangʻich sinflarda matematika oʻqitish metodikasi. -T.: 1985 y.
21. Mamedov K., Shoumarov Gʻ. «Aqli zaif bolalar psixologiyasi» -T.: 1994 yil.
22. Никитин Б.П. Развивающие игры. –М.: 1978.
23. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi. Nasaf. 2000.
24. Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari//. Respublika ilmiy-amaliy konf.mat. –T.: OʻzPFITL. 2003.
25. Перова М.Н. Методика преподавания математики во вспомогательной школе. М.: Просвещение. 1989 г.
26. Рубинштейн С.Я. Психология умственно отсталого ребенка. М.: Просвещение. 1979 г.
27. Стойлова Л.П. «Математика» -М.: Академия 1997 г.
28. Sagatov M.I. Yordamchi maktabda matematika oʻqitish uslubiyati. T.: Oʻqituvchi. 1993 y.
29. Sagatov M.I. Matematika va uni oʻqitish maxsus metodikasi. T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006 y.
30. Tolipov Oʻ.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Fan, 2006.
31. Tolipov Oʻ.Q., Sharipov SH.S.. Oʻquvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. –T.: “Fan”, 2012.
32. Farberman L. Ilgʻor pedagogik texnologiyalar. -T.: “Fan” , 2000.
33. Эк В.В. Обучение математике учащихся младших классов вспомогательной школы. М.: Просвещение. 1990 г.
34. www.pedagog.uz.
35. www.ziyonet.uz.

Tayanch so'zlar

Abstracts

1. Korreksiya -	Corretion
2. Kompensatsiya -	Compensation
3. Ijtimoiy moslashuv -	Social adaptation
4. O'yin texnologiyasi -	Technology of game
5. Dars-	Lesson
6. Tizim-	System
7. Tahlil -	Analysis
8. Tarkib -	Structure
9. Individual va- differensial yondoshish	Come up to individually or differensial
10.Predmetli faoliyat-	Activity of object
11.Korreksion-pedagogik ish-	Correction- pedagogical work
12.Pedagogic texnologiyalar-	Pedagogic technology
13.Pedagogik jarayon –	Pedagogical action
14.Pedagogik faoliyat –	Pedagogical effceency
15. Metod –	Method
16.Metodika –	Methodical
17. Interaktiv metod-	Interactive method
18. Psixika-	Psychic
19.Malaka-	Experience
20.Ko'nikma-	Practice
21.Faoliyat-	Effceency
22. Jarayon-	Action
23. 10 ichida nomerlash -	Tasks of numbering in 10
24. Son -	Number
25. Birinchi o'nlik -	Cardinal number
26. Maxorat-	Skill

27. Tajriba -	Experience
28. Faollik-	Activity
29. Tengsizlik -	Inequality
30. To'g'ri sanash-	Correct counting
31. Teskari sanash-	Counting vice verse
32. Ko'rgazmali qurollar-	Visual aids

MAVZU №1.	<i>Birinchi o'nlilikni o'rganish uslubiyati.</i>
------------------	---

Darsni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 12		Vaqti: 45 minut.	
O‘quv mashg‘ulotining shakli		Kirish – mavzu bo‘yicha dars mashg‘uloti	
Dars rejasi	1. Aqli zaif o‘quvchilarga sonni hosil qilishni o‘rgatish. 2. Aqli zaif o‘quvchilarga sonni raqam bilan belgilash va raqamni yozish ko‘nikmalarini shakllantirish. 3. Aqli zaif o‘quvchilarga sonni natural qatordagi o‘rni haqida tushuncha berish. 4. Aqli zaif o‘quvchilarga to‘g‘ri va teskari tartibda sanashga o‘rgatish 5. Aqli zaif o‘quvchilarga sonlarni taqqoslash va 10 ichida qo‘shish va ayirishga o‘rgatish		
<i>Dars maqsadi: Aqli zaif o‘quvchilarda son, sanoq tushunchasi va natural sonlar qatorining xususiyatlari ustida tasavvurlarni tarkib toptirish, o‘nlik sonlari va ular bilan amallar bajarish bo‘yicha bilimlar berish.</i>			
Pedagogik vazifa:		O‘quv faoliyatining natijasi:	
• sonni hosil qilishni o‘rgatish. • sonni raqam bilan belgilash va raqamni yozish ko‘nikmalarini shakllantirish. • sonni natural qatordagi o‘rni haqida tushuncha berish. • to‘g‘ri va teskari tartibda sanashga o‘rgatish • sonlarni taqqoslash va 10 ichida qo‘shish va ayirishga o‘rgatish		• sonni hosil qilishni o‘rganib olishadi. • sonni raqam bilan belgilash va raqamni yozish ko‘nikmalari shakllantiriladi. • sonni natural qatordagi o‘rni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar • to‘g‘ri va teskari tartibda sanashga o‘rganib olishadi • sonlarni taqqoslash va 10 ichida qo‘shish va ayirishga o‘rganib olishadi	
O‘qitish usullari va texnika		Suhbat, amaliy hujum, bahs-munozara	
O‘qitish vositalari	darslik, A-3 hajmidagi qofoz, marker, skotch.		
O‘qitish shakli	Keng qamrovli, jamoaviy, kichik guruhda ishlash.		
O‘qitish shart-sharoitlari	Guruhda ishlash uchun ajratilgan dars xonasi		
Monitoring va baholash		Ofzaki nazorat, blits-so‘rov, test	

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (10 daqiqa).	1.1. Dars mavzusi, maqsadi e'lon qilinadi. (1-Ilova) 1.2. Dars mashg'ulotni o'tkazish ketma - ketligi tushuntiriladi. 1.3. O'quvchilarni jonlantirish maqsadida «Aqliy hujum» ni amalga oshiradi. (2-Ilova)	Diqqat bilan tinglaydilar. Yozib oladilar Savollarga javob beradilar
2-bosqich. Asosiy (informatsion bosqich). (25 daqiqa)	2.1. ko'rgazmali qurollar va doskadan foydalanib jadvallar, chizmalar orqali dars rejasi va asosiy tushunchalarni sharxlab beradi. (3-Ilova). 2.2. O'quvchilar birinchi o'nlikdagi son bilan alohida tanishadilar. 2.3. Har bir navbatdagi son qanday raqam bilan belgilanadi, shu son ichida sanaladi, sonning natural sonlar qatoridagi o'rnini aniqlanadi, qatorning ixtiyoriy soni bilan undan oldin keladigan va keyin keladigan hamma sonlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi. 2.4. Sonlar taqqoslanadi, ularning tarkiblari, har bir son ichida qo'shish va ayirish amallari o'rganiladi, yig'indi va qoldiqni topishga oid sodda masalalar yechiladi.	2.1. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan tinglaydilar. 2.2. O'quvchilar mavzu bo'yicha misollar yechishadi. Bu uslub guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi. 2.3. Savollarga javob beradilar 2.4. Masala va misol yechishadi
3-bosqich. Yakunlovchi bosqich. (10 daqiqa)	3.1. Mavzuni yakuniy xulosalarni beradi. 3.2. O'quvchilarga mustaqil ishlashi uchun uyga vazifa beriladi. (6-Ilova)	3.1. O'quvchilar tinglaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

Blits-so'rov savollari

1. To'rt soni qanday hosil qilinadi?
2. Sanoqda 3 sonidan keyin keladigan sonni ayting?
3. Sanoqda 4 va 6 sonlari orasida turadigan sonni yozing.
4. 4 dan 8 gacha sanab bering.
5. Taqqoslang. Qaysi son kata 2 mi yoki 3 mi?

